

Salohiddinova Lobar Qahramon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
kafedrası o'qituvchisi**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA
MALAKALARINI TASHXIS ETISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish masalalari keng yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual rivojlanish darajasini aniqlash, ularning bilimlarni o'zlashtirishidagi farqlarni kuzatish va pedagogik tashxis asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tashxis metodlari, ularning afzalliklari, xorijiy tajribalar hamda amaliy qo'llanish imkoniyatlari keng muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: tashxis, boshlang'ich ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, metod, baholash.

**ДИАГНОСТИКА ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ И НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ В
НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация. В статье подробно рассматриваются вопросы диагностики знаний, умений и навыков учащихся начальных классов. Анализируется роль педагогической диагностики в определении уровня индивидуального развития учеников, выявлении различий в усвоении знаний и совершенствовании образовательного процесса. Особое внимание уделено методам диагностики, зарубежному опыту, их преимуществам и практическому применению.

Ключевые слова: диагностика, начальное образование, знания, умения, навыки, метод, оценивание.

**DIAGNOSIS OF PUPILS' KNOWLEDGE, SKILLS, AND COMPETENCIES IN
PRIMARY EDUCATION**

Annotation. This article provides an in-depth exploration of diagnosing knowledge, skills, and competencies of primary school students. It emphasizes the role of pedagogical diagnosis in determining the level of individual development, identifying differences in knowledge acquisition, and improving the educational process. Special attention is paid to diagnostic methods, foreign experiences, their advantages, and practical applications in primary education.

Keywords: diagnosis, primary education, knowledge, skills, competence, method, assessment.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim — bu o'quvchining keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda tashxis etib borish pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Tashxis orqali nafaqat o'quvchining bilim darajasi, balki uning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi, mustaqil ishlash malakasi ham aniqlanadi. Pedagogik tashxis o'quvchining rivojlanishidagi yutuq va muammolarni ko'rsatib, ta'lim jarayonini to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.

Tashxis (diagnostika) tushunchasi qadimdan mavjud bo'lib, dastlab tibbiyot sohasida qo'llanilgan. Pedagogikada esa u XX asrning o'rtalaridan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlandi. Bugungi kunda tashxis ta'lim sifatini boshqarishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Tashxis nafaqat bilimni aniqlash, balki ko'nikma va malakalarni ham baholash, shaxsiy rivojlanish

dinamikasini kuzatish, shuningdek, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu boisdan boshlang'ich ta'limda tashxis jarayoni muntazam olib borilishi lozim.

Boshlang'ich sinf davri — bu bolaning shaxsiy rivojlanishi va bilim olish jarayonida muhim davrdir. O'quvchilarning psixik rivojlanishida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- Diqqatning barqaror emasligi, tez chalg'ishi;
- Xotiraning ko'proq ixtiyorsizligi, ko'rganini eslab qolishga moyillik;
- Mantiqiy tafakkurdan ko'ra obrazli tafakkurning ustunligi;
- O'yin faoliyatining yetakchi o'rin tutishi.

Shuning uchun boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan tashxis metodlari bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak. Masalan, test topshiriqlari, suhbat, didaktik o'yinlar, grafik diktant va amaliy mashqlar keng qo'llaniladi.

Tashxis metodlari va ularning afzalliklari

Boshlang'ich ta'limda tashxisni amalga oshirishda turli metodlar qo'llaniladi. Ularning har biri o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega:

1. Test metodlari — qisqa vaqt ichida bilimni baholash imkonini beradi.
 2. Kuzatish — o'quvchining tabiiy sharoitdagi faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.
 3. Suhbat va savol-javob — o'quvchining fikrlash darajasi va nutqini baholashga yordam beradi.
 4. Amaliy topshiriqlar — bilimni amalda qo'llash darajasini aniqlashga xizmat qiladi.
 5. Portfel metodikasi — o'quvchining barcha yutuqlari va faoliyati yig'indisini aks ettiradi.
 6. Reyting baholash — o'quvchilarning umumiy rivojlanish dinamikasini ko'rsatadi.
- Ushbu metodlar o'zaro uyg'unlashtirilgan holda qo'llanganda yanada samarali natija beradi.

Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim darajasini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) o'quv fanlari bo'yicha nazariy tushunchalarga ega bo'lish;
- 2) o'quv fanlari bo'yicha yangi axborot va ma'lumotlarni egallash;
- 3) voqelik va hodisaning mazmunini tushunish;
- 4) ijtimoiy ong va mustaqil fikrga ega bo'lish.

Mazkur mezonlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim darajasini belgilaydi. Ko'nikma — bu malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi hamda o'quvchilarda takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. SHu jihatdan ko'nikma ongli faoliyatni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish jarayonining natijasi hisoblanadi.

Malaka — O'zbekiston Respublikasi — "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida mazkur tushunchaga quyidagi ta'rif berilgan: —shaxsning kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalari darajasidir" (3-modda).

Shu jihatdan o'quvchilarning malakasini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) o'quvchilarning bilimdonlik darajasi;
- 2) o'quvchilarning qobiliyatlik darajasi;
- 3) o'quvchilarning mahoratlik darajasi;
- 4) o'quvchilarning ko'nikmalik darajasi.

Bu mezonlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining malaka darajasini tashxis etishda asos hisoblanadi.

Umuman o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari mazmuni quyidagi tasvirga ega:

Bizning yondashuvimizga ko'ra o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish mazmuni quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash;
- 2) o'quvchilarning ko'nikma darajasini aniqlash;
- 3) o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash;
- 4) o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi. SHu jihatdan bu jarayonda tashxis etish omilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxislash vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning bilim darajasi o'sib borishini o'rganish; o'quvchilarning ko'nikma darajasi o'sib borishini aniqlash; o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borish tadbirlarini belgilash hamda tavsiyalarini ishlab chiqish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxislash uslublari quyidagilardan iborat: maxsus tuzilgan testlardan foydalanish;

statistika; induksiya va deduksiya;

bashorat qilish;

tadbirlarni rejalashtirish va amaliy tavsiyalarni taqdim qilish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxislashning asosiy bosqichlari quyidagilardir: mo'ljallarni aniqlash; aniqlangan darajalarni modellashtirish; holatni rivojlantirish; o'quvchilar bilan individual ishlash.

Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda asos hisoblanadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish zaruriyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

1) o'quvchilarning bilim darajasi bo'yicha aniq ma'lumotga ega bo'lish va ularning bilimini rivojlantirishga doir reja tuzish;

2) o'quvchilarning ko'nikma darajasini aniqlash va uni rivojlantirish tadbirlarini belgilash;

3) o'quvchilarning malaka darajasini aniqlash va uning o'sib borish yo'nalishlarini belgilash; 4) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini xalqaro ta'lim dasturlari asosida tashxis etish.

Bugungi kunda 2020-2021 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida TIMSS, PISA va STEAM xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilmoqda. SHu sababli mazkur dasturlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish zaruriyat bo'lib turibdi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ushbu dasturlar asosida tashxis etish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

a) o'quvchilarning har bir fan bo'yicha bilim darajasini va savodxonligini chuqurlashtirish;

b) o'quvchilarning ko'nikmasini amaliy faoliyat asosida rivojlantirib borish;

d) o'quvchilarning malaka darajasini turli tadbirlar vositasida o'stirib borish;

e) o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajalarini tashxis etishda

xalqaro ta'lim dasturlarining talablariga asoslanish.

Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishning zaruriyatini belgilaydi. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun maxsus guruh tuziladi. Guruhning tarkibida quyidagilar ishtirok etishi taqozo etiladi:

har bir o'quv fanining o'qituvchilari;

sinf rahbarlari;

taklif etiladigan metodistlar va mutaxassislar;

maktab jamoasining vakili;

maktab psixologi.

Bu guruh o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish rejasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizningcha, bunday reja choraklik muddatda tuzilishi kutilgan samarani beradi. CHunki tashxis etishning natijasiga ko'ra, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini yanada rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqiladi.

SHunday qilib umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Xorijiy mamlakatlarda boshlang'ich ta'limda tashxis qilish tajribasi turlicha rivojlangan: - Finlyandiyada tashxis o'quvchilarning individual rivojlanish xaritasini tuzish orqali amalga oshiriladi.

- Germaniyada o'quvchilarning yutuqlari portfel metodikasi asosida muntazam yig'iladi.
- AQShda standartlashtirilgan testlar keng qo'llaniladi, lekin ular ijodiy topshiriqlar bilan uyg'unlashtiriladi.

Mazkur tajribalar O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Jumladan, milliy baholash tizimi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha muntazam tashxis qilinmoqda.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari

Boshlang'ich ta'limda baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- Bilimlarni eslab qolish va qayta tiklash darajasi;
- Bilimni amalda qo'llay olish darajasi;
- Mustaqil fikrlash qobiliyati;
- O'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiya va faollik.

Baholash jarayonida nafaqat bilim darajasi, balki shaxsiy sifatlar, ijodiy yondashuv va kommunikativ ko'nikmalar ham hisobga olinadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini tashxis qilishda test metodlari va kuzatuv eng samarali vosita hisoblanadi. Masalan, 100 nafar o'quvchi o'rtasida o'tkazilgan tajribada 70% o'quvchi testlardan yuqori ball to'plagan, 20% o'quvchi o'rtacha natija ko'rsatgan va 10% o'quvchida esa qo'shimcha yordam zarurligi aniqlangan. Bu esa tashxis jarayoni nafaqat baholash, balki ta'lim jarayonini boshqarishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tashxis jarayoni o'quvchining individual rivojlanishini aniqlash, ta'lim jarayonini individuallashtirish, ota-onalarga aniq ma'lumot berish va o'qituvchining faoliyatini samarali tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, tashxis orqali o'quvchilarda o'z-o'zini baholash, mas'uliyat va mustaqillik kabi muhim sifatlar shakllanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish — ta'lim sifatini oshirish, o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash hamda o'qituvchining faoliyatini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tajriba va milliy amaliyot sintezidan foydalanish tashxis jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunov A. Pedagogik diagnostika asoslari. – Toshkent, 2020.
2. Karimova V. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2019.
3. Hasanboyeva O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2021.
4. Salohiddinova L.Q. "THE SYSTEM OF TEACHING STORIES CONTAINING FOLKLORE IN READING LITERACY CLASSES IN ELEMENTARY GRADES". – Journal of applied science and social science, 2025
5. Salohiddinova L.Q. "THE IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SCIENCE". - INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT, 2025
6. Salohiddinova L. "O'qish savodxonligi darslarida qofiyani o'rgatish yo'llari". - TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR